

TA'LIM MUASSASASILARIDA MENEJERLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH: KO'RSATKICH VA TENDENSIYALAR

Abduxoliqova Marjona Ixtiyor qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada menejer va uning hislatlari, shuningdek, ularga qo'yiladigan zamonaviy talablar xususida keltiriladi. Hamda hozirgi kunda yo'lga qo'yilgan menejerlik faoliyati metodologiyasi haqida batafsil so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: menejer, rahbar, modellashtirish, jarayon, zamonaviy talablar, avtoritar, innovatsion faoliyat.

Hozirgi kunda hammaga ma'lumki, ko'plab korxonalar va tashkilotlarda hamda ta'lim muassasalarida menejerlik faoliyati yo'lga qo'yilgan va bunga ehtiyoj yetarlichadir. Sababi tashkilotni boshqarish uchun avvalari ushbu soha mutaxassisi bo'lish shart bo'lmagan, boshqaruv texnologiyasi va texnikasini, odamlar bilan ishlay olishlikning o'zi yetarli deb hisoblangan. Xolbuki hozirgi davr bozor iqtisodiyotiga o'tish va korxonalar muvaffaqiyatini kafolatlaydigan boshqaruv tizimini tashkil etish, shuningdek uni davomiy rivojlantirib boradigan va takomillashtiradigan vaqtning ayni paytidir. Xususan bu jarayon ta'lim muassasalarida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda va bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda.

Xôsh menejer o'zi kim? Menejer (inglizcha "manager" so'zidan olingan) - bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy boshqaruv tamoyillari, funktsiya va uslublarini qo'llagan holda moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga belgilangan maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyati subyektidir. Menejerlar obrazi va xususiyatlari doimiy ravishda boyib, takomillashib boradi. Bu albatta zamon talabi. Amalda menejerlik lavozimi- kadrlar bo'limi boshlig'i bilan teng bo'lib, ta'lim muassasasi Ustaviga, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab Ta'limi Vazirligining qaror va buyruqlariga, Prezident farmonlariga bo'ysunadi va o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Menejerlar boshqaruv appariting bir bo'g'ini hisoblanib, o'z navbatida ta'lim muassasalarida rahbarlari boshqaruv faoliyatida menejerlik hislatlariga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga 2023-yilning 1-yanvaridan boshlab barcha maktab direktorlari uchun menejerlik sertifikatini olish tizimi yo'lga qo'yildi. Bunda avvalo rahbarlik lavozimida ishlab kelayotgan xodimlar hamda ixtiyoriy da'vogarlar Milliy

tadqiqot institutidagi maxsus pullik kurslarda o'qishadi va yakuniy attestatsiya imtihonlari natijasiga ko'ra sertifikat beriladi.

Aslini olganda menejer ko'proq iqtisodiy-ijtimoiy ko'nikmalarga va insoniy omillarga asoslangan bo'lib, menejmentning asl vatani AQShda ham ratsional yondashuv ustuvorlik qilgan. Buning ustiga, avvallari boshqaruv apparati faqat avtokratik rahbardan iborat bo'lgan bôlsa, hozirda esa aksincha, rahbar bilan birga yollanma rahbar bo'lgan-menejerlar ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Sababi menejerlar faqatgina maqsadga erishish va yuqori foydaga olishni ko'zda tutmay, o'z qo'l ostidagi xodimlar ehtiyoji va xohishlarini hisobga olgan holda taktika va strategiyalarni qo'llaydi.

Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, zamonaviy rahbar faqat 15-20 % o'z sohasidagi mutaxassis bo'lishi kerak, u hammadan avval tashkilotchi, ruhshunos, sotsiolog bo'lishi kerakligi ta'kidlab o'tildi. Har qanday darajadagi zamonaviy menejerni oldiga butun bir qator talablar qo'yiladi. U quyidagi asosiy sifatlarga ega bo'lishi kerak:

- zamonaviy tashkilotni boshqarish sohasidagi bilimlar va tajribaning mavjudligi
- faoliyatning turi va xarakteri bo'yicha tashkilot tegishli bo'lgan sohaning holati va rivojlanishi masalalarida (tadqiqotlarning holati, texnika, texnologiya, raqobot, mahsulotga talabning dinamikasida) omilkorlik;

- nafaqat ma' muriy boshqarish, balki tadbirkorlik ko'nikmalariga ega bo'lish, bozordagi vaziyatni boshqarishni bilish, tashabbus ko'rsatish va firma resurslarini qo'llashning foydaliroq sohalarida faol qayta taqsimlash;

- yuqori dinamiklik va noaniqlik sharoitida quyida turuvchi rahbarlar va xodimlar bilan kelishish asosida omilkor qarorlarni asoslash va qabul qilish, ularning qabul qilingan qarorlarni amalga oshirishdagi ishtirokini taqsimlashni bilish;

- asosiy bozorlar yoki ularning hozir ishlanayotgan yoki ishlamoqchi bo'lgan segmentlaridagi iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish sohasidagi amaliy bilimlar va tajribaning mavjudligi;

- yuqori madaniyat, soflik, hamma narsada namuna bo'lish qobiliyati;

- raqib firmalar faoliyati va harakatlarini tahlil qilishni bilish;

- tashkilot resurslarini boshqarish qobiliyati va bilishi;

- tashkilot ishini bashorat qilish va rejalashtirishni bilish; tashkilotni boshqarish va faoliyat yuritishning samaradorligini oshirish usullariga egalik qilish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari, kommunikatsiya va aloqa vositalariga egalik qilish;

odamlar bilan ishlash, ularga ta'sir ko'rsatish qobiliyati va bilimi, buning uchun zarur bo'lgan dilkashlik, adolatlikka ega bo'lish, "insoniy munosabatlar"ni bilish; o'zini o'zi va o'z vaqtini boshqarishni bilish; masalalarni hal qilishda qat'iylik, g'ayratlilik, dinamiklik; rasmiy va norasmiy tuzilmalarning o'zaro aloqasini hisobga olish bilan odamlar bilan munosabatlarni o'rnatishni bilish;

bilimlar va farosatlilik (tashkilotdagi aniq sharoitlarni bilish, ularda o'z yo'lini topa bilish, farosatli va topqir bo'lish);

o'ziga o'zi yordam ko'rsatishni bilish, tashkilotdagi ma'lum sharoitlarda boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish hisobiga o'zini qo'llab quvvatlash;

Xususan, hozirgi kunda menejerlar yuqoridagi sifatlar bilan birgalikda o'z mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lishi juda muhim. Sababi ko'plab korxonalar va ta'lim muassasalaridagi faoliyat olib borayotgan menejerlar va rahbar xodimlar mutaxassisligi turlicha. Ayni damda xattoki ba'zilari o'rta maxsus ma'lumotga egadirlar. Masalning boshqa tomoni ham borki, shu mutaxassislik bo'yicha bitirayotgan OTM bitiruvchilari yetarli tajriba va malakaga ega emasliklaridir.

XX asr o'rtalarida paydo bo'lgan modellashtirish asosida menejerlik faoliyati har bir muassasa uchun zaruriy modelga aylandi. Unga ko'ra menejerlar asosiy vazifalari quyidagilarni tashkil etadi: muassasadagi alohida jarayonlar o'rtasidagi aloqarni o'rnatadi, bo'lim va tarmoqlarga rahbarlik qiladi, strategiya va taktik rejalarni ishlab chiqadi, muassasaning tashqi hamkorligini o'rnatishda asosiy ishtirokchi rolini o'ynaydi. Avvalambor bu jarayonlarni amalga oshirishda har bir menejerdan tashabbuskor bo'lish, innovatsion fikrlar generatiga aylanish va o'zgina tavakkalchilik qilish talab etiladi. Mavjud muammolarga aniq, konkret yondashish va oqilona yechim topa olishi ham zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimova, Q. (2020). Farzand tarbiyalashda ota-onalarning asosiy xatolari. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). Извлечено <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/436>
2. Alimova Kunduz Oybek qizi, & Toshboyeva Hulkar Mirzaboy qizi. (2021). ISSUES OF ETHICS AND ETHICS IN THE CHILDHOOD OF HAZRAT SHAIKH MUHAMMAD SADIQ MUHAMMAD YUSUF. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 93-95. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/1227>

3. Botirov Bakhtiyor Fayzullaevich, & Usmanov Azamat Juraboevich. (2020). MELON IN UZBEKISTAN - ECONOMIC EFFECTIVENESS OF INTRODUCTION OF "MELON, WATERMELON SYRUP", "WATERMELON HONEY", "MANGO" BEVERAGE FROM WATERMELONS. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1(4), 136-138. Retrieved from <http://summusjournals.uz/index.php/ijdiie/article/view/325>

<https://lex.uz/ru/docs/-6008663>

"Innovations in Science and
Technologies"